



Published on *Xalq Banki* (<http://xb.uz>)

Uchta “Spark” avtomobili o‘z sohiblarini topdi

Ko'rildi: 3401

Yangilangan sana: Ju, May, 11, 2018



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pul-buyum lotereyalari o‘tkazishni tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2002 yil 15 noyabrdagi 396-sonli qaroriga binoan aksiyadorlik tijorat Xalq bankiga pul-buyum loteriyalarini tashkil etish va o‘tkazish huquqi berilgan. Bank Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaga asosan bir necha turdagi lotereya o‘yinlarini o‘tkazib kelmoqda.

Jumladan, ayni paytda muomalaga chiqarilgan “Oltin baliq” lahzali, pul-buyum yutuqli lotereyasi (2-razryad) yutuq‘iga qo‘yilgan 10 ta “Spark” avtomobillaridan 3 tasi yutuq egalariga topshirildi.

E‘tiborlisi, g‘oliblarning barchasi Qoraqalpog‘iston Respublikasidan bo‘lib, Qo‘ng‘irot tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro Xamidulla Allaniyazov, Qorauzak tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro Jumabay Menajatdinov, Chimboy tumanida istiqomat qiluvchi hamyurtimiz Temur Tenalov bo‘ldi va mazkur avtomobillar o‘yin tashkilotchisi – aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan yutuq egalarining nomlariga rasmiylashtirib berildi.

– Bir necha yildan buyon yangi avtomobil egasi bo‘lishni niyat qilib yurardim, ammo lotereyadan mashina chiqishini kutmagan edim, – dedi omadli yurtdoshlarimizdan biri Xamidulla Allaniyazov. – Yaqinda yaxshi niyat bilan Xalq bankining Qo‘ng‘irot tuman filialidan uch dona “Oltin baliq” lahzali, pul-buyum yutuqli lotereyasini xarid qildim. Ko‘rib turganingizdek, bizga omad kulib boqdi. Bundan oilamiz bilan benihoya mamnunmiz.

Eslatib o‘tamiz, aksiyadorlik tijorat Xalq bankining “Oltin baliq” lahzali, pul-buyumli lotereyasining 2-razryadida 10 ta “Spark” avtomobili va 25 mln. so‘mgacha bo‘lgan 3 829 032 ta turli miqdordagi pul yutuqlari o‘ynalmoqda. Demak yana ko‘plab "Spark" avtomobillari hamda turli miqdordagi pul yutuqlari o'z egalarini kutmoqda.

Lotereya haqidagi batafsil ma‘lumotlarni Xalq bankining www.xb.uz [1] sayti yoki bank filiallaridan olishingiz mumkin.

Imkoniyatni qo‘ldan boy bermang!

Unutmang, keyingi yutuq sohibi aynan Siz bo‘lishingiz mumkin!

Bank axborot xizmati

Links

[1] <http://www.xb.uz/>